IJTIMOIY TARMOQLARDA PAYDO BO‘LAYOTGAN YANGI LEKSIK BIRLIKLAR: ULARNING O‘ZBEK TILIDAGI O‘RNI.

Adhamova Mohlaroy Nodirbek qizi
O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Ingliz tili filologiyasi fakulteti talabasi
E-mail: mohlaroyadhamova29@gmail.com
Bobojonova Z.R
O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Ingliz tili filologiyasi fakulteti
0009-0006-4307-1476

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tilimizga ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan yangi leksik birliklar va ularning qanday paydo bo‘layotgani o‘rganilgan. Tadqiqot davomida ijtimoiy tarmoqlar tilga qanday yangi so‘zlar olib kirayotgani neologizmlar, qarz so‘zlar va leksik yangilanishlar misolida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, hozirda keng foydalanilayotgan ommaviy ijtimoiy tarmoqlardan postlar va kommentariyalar to‘plami chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek tiliga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlangan hamda statistik ma’lumotlar, so‘rov natijalari, shuningdek, mutaxassislarning fikrlari asosida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoy tarmoqlar, postlar, kommentariyalar, Instagram, Telegram, like, story, reels.

Annotation. This scientific article studies new lexical units entering Uzbek language through social networks and how they arise. During the study, it was examined what new words social networks bring to the language using the example of neologisms, loanwords and lexical updates. Also, a collection of posts and comments from currently widely used social networks was deeply analyzed. As a result of the study, it was determined how social networks affect the Uzbek language and conclusions were drawn based on statistical data, survey results, as well as the opinions of experts.

Keywords: social networks, comments, Instagram, Telegram, like, story, reels.

Аннотация. В данной научной статье исследованы новые лексические единицы, которые проникают в наш язык через социальные сети, а также процесс их появления. В ходе исследования рассмотрено, какие новые слова социальные сети вводят в язык, на примере неологизмов, заимствований и лексических обновлений. Кроме того, проведён глубокий анализ набора постов и комментариев из наиболее популярных в настоящее время социальных сетей. В результате исследования определено, какое влияние социальные сети оказывают на узбекский язык, и на основе статистических данных, результатов опросов, а также мнений специалистов сделаны соответствующие выводы.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: социальные сети, посты, комментарии, Instagram, Telegram, like, story, reels.

Kirish

Biz bugun rivojlangan zamonda yashar ekanmiz, 21-asr texnologiyalar asri deb aytsak adashmagan bo‘lamiz. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar kirib kelmagan va ular ta’sir ko‘rsatmagan deyarli hech qanday narsa qolmagan. Tan olishimiz kerak biz hozir internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz yashay olmaymiz, chunki ular allaqachon hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylanib ulgurdi.

Hozirda ijtimoiy tarmoqlar juda ko‘p narsalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shu jumladan, tillarga, bizning tilimizga ham ijobiy hamda salbiy tomondan ta’sir ko‘rsatmoqda. Biz bu jarayonni, albatta, e’tiborsiz qoldirolmaymiz, chunki til jamiyatimiz va xalqimiz uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi tushunchalardan biridir.

Til – jamiyat hayotining ko‘zgusi. Masalan, til jamiyatning madaniy darajasini ko‘rsatadi, sababi har bir xalqning tili orqali uning tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashi bilinadi, shuningdek, til jamiyat taraqqiyotining belgisi hamda yosh avlod tarbiyasidasi asosiy faktor. Til orqali yoshlar qadriyatlarimiz, tariximiz va milliy g’ururni o‘rganishadi, shu sababli, toza va boy til – jamiyatning sog’lom kelajagi garovi. Shuning uchun ham biz ijtimoiy tarmoqlar orqali tilimizga kirib kelayotgan yangi leksik birliklar va ularning ahamiyatini o‘rganishimiz lozim. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘layotgan yangi leksik birliklar chuqur tahlil qilinadi va tilimizga ko‘rsatayotgan ta’siri o‘rganib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi, ularning ijtimoiy omillar bilan bog’liqligi masalasi ko‘plab tadqiqotlarda yoritilmoqda. Xususan, N. Obidova tomonidan olib borilgan “Social Networks Lexicon in Uzbekistan” nomli tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan yangi so‘zlarning o‘zbek tili leksik tizimiga ta’sirini qayd etgan. U o‘z tadqiqotlarida yangi leksik birliklarning tilda paydo bo‘lish sabablari, uslubiy xususiyatlarini tahlil qilib, ularni ijtimoiy hayotdagi yangiliklar bilan bog’laydi. Unga ko‘ra, til jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi vosita sifatida yangilanib boradi.

Nishonova, S.M. esa “Linguistic study of English loanwords in the Uzbek language” nomli maqolasida ommaviy axborot vositalari va internet tili ta’sirida yuzaga kelayotgan yangi so‘zlarning leksik tizimga kirib borish jarayonini o‘rganadi hamda inglizcha qarz so‘zlarning o‘zbek tilidagi morfologik moslashuvi va semantik kengayishini tahlil qilib, ularning o‘zbek til tizimiga tabiiy kirib kelayotganini ta’kidlaydi. Shuningdek, u yangi birliklarning o‘zbek tilining fonetik

ISSN 3030-3907

va grammatik tizimiga moslashuvini, ularning so‘z yasovchi unsurlar bilan bog’liqligini izohlaydi.

Ushbu manbalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘layotgan yangi so‘zlar o‘zbek tili leksikasining zamonaviy qatlamini shakllantirmoqda. Ular tildagi innovatsion jarayonlarni, yoshlar nutqidagi o‘zgarishlarni va global madaniyatning ta’sirini ochib beradi. Ushbu tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘layotgan yangi so‘z, leksik birliklar va iboralarni (neologizmlar) o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidan kirib kelgan yangi so‘zlarning o‘zbek tiliga qanday o‘rnashayotganini, ularning ma’nosi va shakli qanday o‘zgarganini aniqlashdir.

Tadqiqot kuzatuv va tahlil usullariga asoslanadi. Instagram va Telegram ijtimoiy tarmoqlaridagi ochiq (public) postlar va kommentlar o‘rganildi hamda bu postlarda ishlatilgan yangi so‘zlar, ularning yozilishi va ma’nosi tahlil qilindi.

Tahlil bosqichlari quyidagicha:

1. Avval ijtimoiy tarmoqlardan yangi so‘zlar yig‘ildi.
2. Keyin bu so‘zlar turli guruhlarga bo‘lindi: yangi yaratilgan so‘zlar (neologizmlar),

to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llaniladigan inglizcha so‘zlar, o‘zbekchaga moslashgan so‘zlar (layk bosmoq, post joylamoq), qisqartmalar yoki jargon so‘zlar.

3. Har bir so‘zning ma’nosi va tuzilishi o‘rganildi.
4. Barcha ma’lumotlar tahlil qilinib, eng ko‘p ishlatilgan so‘zlar va ularning o‘zbek tiliga moslashuv darajasi aniqlandi.

NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko‘ra, hozirda ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar orqali ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan yangi so‘zlar juda ko‘p ishlatilmoqda. Eng ko‘p uchraydigan leksik birliklar: like, post, story, reels, admin, channel kabi so‘zlar hisoblanadi. Ularning ba’zilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri inglizcha shaklda ishlatilsa, ba’zilari o‘zbek tiliga moslashgan holda ishlatilmoqda.

Masalan:

layk bosmoq (like + bosmoq),

post joylamoq (post + joylamoq),

storiyga qo‘yish (story + qo‘yish).

Aksariyat foydalanuvchilar ko‘pincha inglizcha atamalarni asta-sekin o‘zbekcha shaklga keltirib ishlatmoqda. Bu holat inglizcha so‘zlarning o‘zbek tiliga grammatik jihatdan moslashayotganini ko‘rsatadi, shuningdek, tahlil natijasidan biz inglizcha so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi tilda o‘zgarish va yangilanish jarayonini kuchaytirayotganini ko‘rishimiz mumkin.

MUHOKAMA

ISSN 3030-3907

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar til taraqqiyotining muhim omiliga aylanib ulgurgan. Xususan, Instagram hamda Telegram singari platformalarda qisqa va qulay shaklda yozish zaruriyati va muloqotning tezkorligi natijasida yoshlar nutqida bir qator yangi leksik birliklar, so‘zlar hamda qisqartmalar faol shakllanib bormoqda. Bu jarayon, avvalo, internet tili orqali tez axborotlar almashinuvi sababli sodir bo‘layotgan bo‘lsa, so‘ngra chetdan kirib kelayotgan yangi atamalar tufayli yuz bermoqda. Darhaqiqat, hozirda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot maydoni, balki yangi so‘z va ifodalarni tarqatadigan, yaratadigan hamda ommalashtiradigan asosiy vosita hamdir.

O‘tkazilgan tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi leksik birliklar asosan axborot texnologiyalari, ommaviy madaniyat va yoshlar tili bilan bog‘liq. Bunday so‘zlar ko‘pincha ingliz tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashadi (trend, like, bloger, post, reel kabi) yoki o‘zbek tilining morfologik tizimiga moslashtiriladi (layk bosmoq, repost qilmoq, kontent yaratmoq kabi).

N. Obidova va Nishonova S.M. ishlarida qayd etilganidek, yangi leksik birliklarning shakllanishi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning bevosita natijasidir. Bizning kuzatuvlar ham shunga o‘xshash natijani ko‘rsatmoqda: inglizcha birliklar (story, post, like) faol qo‘llanmoqda va asta-sekin o‘zbekcha gap tuzilmasi hamda grammatikasi bilan uyg’unlashmoqda, shuningdek, bizning natijalar ham Instagram va Telegram foydalanuvchilari “Layk bosmoq”, “Post joylamoq”, “Storiyga qo‘yish” kabi birliklarni faol qo‘llab, inglizcha so‘zlarni o‘zbekcha grammatik shaklga moslashtirayotganini tasdiqlaydi.

Bir tomondan inglizcha so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi tilning boyishiga, yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatining ortishiga xizmat qilmoqda. Masalan, content, trend, blogger va admin birliklari oldin mavjud bo‘lmagan faoliyat yoki hodisani aniq ifodalash imkonini bermoqda. Lekin boshqa tomondan, ijtimoiy tarmoqlarda inglizcha birliklarning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi nutqda til aralashmasini ya’ni ayrim foydalanuvchilar nutqida “Like bosdim”, “Story qo‘ydim” singari til aralashmasini kuchaytirib, tilimizning sofligiga zarar yetkazmoqda. Chunki yuqoridagi shakllar adabiy tildan uzoqlashgan muloqot uslubini yuzaga keltiradi.

XULOSA

Yuqoridagi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, hozirda ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan, faol inglizcha leksik birliklar o‘zbek tili leksik tizimida faol o‘rin egallamoqda. Bu jarayon bir tomondan tilning zamonaviylashuvi va xalqaro axborot makoniga moslashuvini ta’minlasa, ikkinchi tomondan tilning sofligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi hamda adabiy me’yorlarning buzishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim so‘zlarning haddan tashqari inglizcha

ISSN 3030-3907

shaklda ishlatilishi tilda aralashmalar ko‘payishiga olib kelmoqda. Shuning uchun yangi leksik birliklarni to‘g‘ri ishlatish, ularni o‘zbek tilining imlo va talaffuz qoidalariga mos shaklda qo‘llash muhimdir. Shu sababli, biz ijtimoiy tarmoqlardagi yangi so‘zlardan muloqot imkoniyatini kengaytirish uchun, lekin ongli ravishda ortiqcha begona so‘zlarni tanlamasdan foydalanishimiz kerak. Sababi leksik yangilanish tabiiy jarayon, ammo til me’yorlarini saqlash muhim.

Umuman olganda, bu tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning til rivojidagi ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rsatib berdi va ular orqali tilimizga kirib kelayotgan yangi leksik birliklar haqqida ma’lumot berdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. GOLDEN BRAIN, 1(11), 234–239. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161

2. Nishonova, S. M. (2024). *Linguistic study of English loanwords in the Uzbek language. Mental Journal. https://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/457*

3. Nishonova, G. (2023). O‘zbek tilida inglizcha qarz so‘zlarning moslashuvi va ishlatilish xususiyatlari.

4. Obidova, N. (2023). Social Networks Lexicon in Uzbekistan

5. O'zbek taom nomlarining Ingliz va Rus tillarida ifodalashdagi o 'zgarishlar. BZ Rashidovna - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2025 - inlibrary.uz

6. Telegram va Instagram platformalaridagi ochiq postlar va foydalanuvchi kommentariyalari (2024-2025 yillar kuzatuvlari asosida).

7. Ingliz va rus leksikografiyasida o 'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili Z Bobojonova - MAKTABGACHA VA MAKTAB …, 2025 - maktabgacha-va-maktab-talimi

ISSN 3030-3907